

## CHO'LPONNING "NOVVOY QIZ" HIKOYASIDA BADIY PSIXOLOGIZM

**Abdug'offorova Zulayxo**

*Farg'ona davlat universiteti 3 bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Badiiy asarning eng xarakterli xussiyatlaridan biri badiiy psixologizmdir. Uning badiiy asardagi o'rni Cho'lponning "Novvoy qiz" hikoyasi vositasida tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xarakter, psixologik tahlil, dinamik prinsip, analitik prinsip, tipologik prinsip, psixologik obraz.*

Bugungi kunda psixologizm badiiy adabiyotning sifat belgilaridan biriga aylanganligi sababli u ma'lum miqdorda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda ma'lum darajada tadqiqot obyektiga aylandi. Badiiy asar – ijodkor tafakkuri mahsuli bo'lib, unda inson va jamiyat hayoti, uning taqdir yo'li va qismati o'z aksini topadi. Har bir badiiy asarda hayotimizda sodir bo'lib o'tgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-xodisalar muallif tomonidan o'quvchi-kitobxoniga badiylik qonuniyatlariga asoslanib yetkazilar ekan, mazkur badiylik qonuniyatlari turli davrlarda sayqallanib, an'anaviylik va novatorlik orasida muntazam shakllanishda davom etadi. Badiiy asarlarda ko'tarilayotgan muammolar, o'quvchi e'tiboriga va hukmiga havola qilinayotgan masalalar badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita asar yaratilgan davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to'liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – "badiiy psixologizm" deb yuritiladi.

Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati-adabiyotning asl mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko'tarilishi darhol ro'y bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish davrlarida bu muammo turlicha tushunilgan va tadqiq etilgan. Xususan, L.Tolstoy aytganidek, San'atning asosiy maqsadi inson qalbi haqidagi haqiqatni aytishidir. Aristotel "Poetika" asarida qayd qilganidek, badiiy asarning asosiy belgisi- tashqi hodisalarninb tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir. "Psixologizm... yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir"(A.Qahhor) , asar badiyilgining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir, chunki "odam adabiyotining tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga "odam tasviri" demak- boshlicha odamning ichki dunyosi tasviri, uning kechinmalari tasviri demakdir". Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog'liq. A. B. Yesin ta'biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu

asar personajining hayot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan xolda juda to'liq, batafsil va chuqur ifodalab berishdir. Adabiyotda psixologizm muammosini o'rganar ekan I.A.Iezuitov "Psixologizm" tushunchasining o'zini ko'p ma'noli ekanligini qayd etadi. R. Uellak va R.Uornlarning "Adabiyot nazariyasi" kitobida ham ta'kidlab o'tilgan. Ammo, ayrim adabiyotshunos olimlarning fikriga ko'ra, adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm masalasi hali hanuz to'liq nazariy asoslab berilmagan va "adabiyotshunoslik ilmidan semantik jihatdan yetarli darajada aniq emas" .

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari – dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko'rsatiladi. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishi va gap-so'zlari orqali ifodalab beriladi, "mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o'xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba'zan psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb ta'riflanadi. Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg'ulari, tafakkur va mulohazasi, o'y fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi". Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko'rsatib berishga imkon beradi, Ta'kidlab o'tish joizki, muallif badiiy obraz xarakteri va uning ruhiyatini ochib berishda yuqorida zikr etilgan uchchala shakldan birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi mumkin. Bunda prinsiplardan biri yetakchi bo'lsa, qolgan ikkitasi uni to'ldirish uchun xizmat qiladi. "Psixologizm – adabiy asar badiiyatining asosiy, ammo yagona bo'lmagan mezon" hisoblanib, "psixologizm – agar badiiy asar uchun botinan zarur bo'lsagina, u asarning yutug'i bo'la oladi ". Yozuvchi personaj xarakterini yaratar ekan, uni ruhiyatini bevosita yoki bilvosita ochib berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan muallif gap) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-xarakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari(mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruxiy tasvirning bu ikki ko'rinishi bir-birini to'ldiradi, shu boisdan ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o'zni bilan unumli foydalanadi. Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o'zaro aloqasi boriki, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida bahsli holatlarni yuzaga keltiradi. .

O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida "psixologizm" va "psixologik tahlil" terminlari farqlanmay ishlatiladi. Ammo bu ikki termini bir ma'noda qo'llash noo'rindir, deya e'tirof etadi professor H.Umurov, – Psixologizm "psixologik tahlil"

tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, u o'zida bevosita muallifning psixologiyasini qamrab oladi. U adabiyotning o'ziga xos qonuniy hodisasi bo'lib, yozuvchining xohishiga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'ladi. "Psixologik tahlil" esa, inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli tuman "ohang"lar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Shuningdek, psixologizmga nisbatan psixologik tahlil o'zining ichki monolog, o'ziniki bo'lmagan nutq, psixologik portret, ikki syujetli diolog kabi aniq belgilariga ega. Shunday qilib, psixologizm adabiyotning qonuniy badiiy hodisasi, psixologik tahlil esa ana shu qonuniy badiiy hodisaning murakkab ko'rinishi (kategoriyasi) hisoblanadi.

Cho'lponning "Novvoy qiz" hikoyasida badiiy psixologizmning yuksak namunalarini ko'ramiz. Asar boshlanishidanoq o'quvchini hayratga soladi. O'lmasboy shomga aytilgan azonni eshitib, xona pardalarini ochadi. Shunda novvoy qiz ustini shosha pishadi berkitdi deyiladi. Bunda asosan psixologizmning dinamik prinsipi kuzatiladi. Analitik va tipologik prinsiplar unga yondosh tarzda berilgan. Ya'ni, novvoy qizda deraza ochilishi holati bilan uning psixologiyasida ust boshini to'g'rilash fikri yuzaga kelgan. Ushbu holat vaziyat yuzasidan amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ".qiz ko'zi ochiq, ezilgan, behol..cho'zilib,xayollanib yotardi". Ko'rinib turibdiki, bunda tipologik prinsip ustunlik qilib, dinamik va analitik prinsiplar uni to'ldirgan. Bu psixologiyani ifodalashning bilvosita shaklini yuzaga keltirgan. Shuningdek, asarda O'lmasboyning novvoy qizga qarata qo'llagan "oyim qiz" iborasi novvoy qiz yuragini qattiq yaralaydi. Ushbu holat, qahramon ruhiyatini mimikalar, xatti-harakatlar, gap so'zlar orqali ochgan. Novvoy qiz yuzida o'zgarish paydo bo'ladi, mimikalari yuzaga chiqadi, gap-so'zlarini izhor etgan holda O'lmasboyga qarab "Imonsiz", - deydi. Asra oxirida sud zali tasvirlangan bo'lib: "...paranjisiz "papka" ko'targan yosh bir xotin to'g'ri sud hay'ati yoniga keldi. U bezgakday titrardi". Asar kulminatsiyasi xuddi shu joyda kuzatiladi. Ayol kim edi? Vaholanki, ayol - o'sha novvoy qiz edi. Shu vaziyatda ayol aytgan so'zlar butun zalni titratadi. Novvoy qiz kechinmalari analitik prinsip asosida yoritilib, o'quvchida kuchli his hayajon uyg'otadi.

Fikrimcha, har bir badiiy asar badiiy psixologizmlardan tarkib topadi. Nafaqat Cho'lpon ijodida balki, butun ijidkorlar ijodida ushbu masalaga chiroyli misollarga duch kelamiz. Bevosita va bilvosita unsurlar orqali ularni anglash osonlashadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - hayot nashriyoti., 2002.
2. Shodiyev N. Psixologik tahlil prinsiplari, forma va vositalari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali 2- son , 1978
3. Umurov X. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. - T., Fan 1983
4. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent , "O'qituvchi", 2005

